

ESKIZ ASOSIDA GAZLAMA XUSUSIYATLARINI O'RGANISH TADQIQI

Mamadjanova Gulshirin Shuhratjon qizi

Namangan to'qimachilik sanoati insituti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11649149>

Annotatsiya

Ushbu maqolada turli matolarni xususiyatlarini hisobga olgan holda, turli xildagi maxsus gazlamalardan foydalanib ayollar mavsumiy liboslarini zamonaviy talqindagi dizayn loyihasini ishlab chiqish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Mato xususiyatlari, klassik uslub, gazlamalar assortimenti, dizayn, loyiha.

Kirish. Yurtimizda dizayn sohasini rivojlanishida qilinadigan ishlarimizning ko'lami nihoyatda keng. Inson libosni tabiatdagi tashqi ta'sirlardan saqlanish vositasi sifatida idrok eta boshlaganidan buyon u insonning badiiy shakllar kashf etish, o'zida qadimiykiyimlarda albatta oziga xosli amaliy va estetik didni mujassamlashtirib buyumlarni yaratish qobiliyatning ramzi bo'lib qoldi. Dizaynning jamiyat oldida ma'suliyati faqat maxsulotni sifatinigina emas, balki insonning madaniy saviyasini ko'tarishidir. Prezidentimizning 2017-2021 yildagi qaroriga asosan tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishidagi ijodkorlarni rag'batlantirish, shuningdek, bolalar san'atini rivojlantirish, O'zbekiston Badiiy akademiyasi tizimidagi ta'lim muassasalari faoliyatida ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internatlari va o'rta maxsus ta'lim muassasalari uchun boshlang'ich badiiy ta'limni yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Nazariy qism. Gazlamalarning fizik xossalari gigroskopikligi, havo o'tkazuvchanligi, bug' o'tkazuvchanligi, suv o'tkazmasligi, ho'llanuvchanligi, chang oluvchanligi, elektrlanuvchanligi, optik, issiqni saqlash va boshqa xossalari kiradi. Fizik xossalari qo'yiladigan talablar gazlamalarning vazifasi bilan belgilanadi va ularning tola tarkibi, tuzilishi va pardoziga bog'liq bo'ladi. Bu xossalari inson salomatligini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Fizik xususiyatlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Matolarning shimish qobiliyatiga bog'liq xususiyati.
2. Matolarning o'zidan havo, suv, bug' va hokazolarni o'tkazish qobiliyatiga bog'liq xususiyatlari.
3. Matolarning turli haroratlar ta'siriga munosabatini tavsiflaydigan xususiyatlar.
4. Matolarning optik xossalari.
5. Matolarning elektrlanuvchanligi.

Materiiallarning shimish xossasi muhim vazifa bajaradi, u inson jismoniy xarakat qilgan vaqtda tanadan ajralib chiqqan terni o'ziga shimib olib tashqi atrof- muhitga bug'lantirib turadi. Bu xossa asosan issiq sharoitda kiyiladigan kiyimlarni tayyorlashda e'tiborga olinadi.

Havo o'tkazuvchanlik – gazlamaning havo o'tkazish xususiyati; uning tola tarkibi, zichligi va pardoziga bog'liq bo'ladi. Siyrak gazlamalar havoni yaxshi o'tkazadi, zich gazlamalar, suv yuqtirmaydigan eritmalar shimdirilgan, rezinalangan gazlamalar havoni butunlay o'tkazmaydi yoki kam o'tkazadi.

Bug' o'tkazuvchanlik – gazlamaning odam tanasidan ajraladigan suv bug'larini o'tkazish xususiyati. Suv bug'lari gazlamadagi g'ovaklar orqali, shuningdek, materiiallarning gigroskopiklik hisobiga o'tadi. Gazlama kiyim ostidagi havodan namni shimib, uni atrofdagi muhitga o'tkazadi. Jun gazlamalar suv bug'larini sekin o'tkazadi va boshqa gazlamalarga qaraganda kiyim ostidagi havo temperaturasini yaxshi rostlab turadi.

Suv o'tkazmaslik – gazlamaning suv sizib kirishiga qarshilik ko'rsatish xususiyati. Suv o'tkazmaslik maxsus gazlamalar (brezentlar, palatkalar, parusinalar), plashlik gazlamalar, paltolik va kostyumlik jun gazlamalar uchun ayniqsa muhimdir. Suv o'tkazmaslik gazlamaning tola tarkibiga, zichligi va pardoziga bog'liq bo'ladi.

Chang oluvchanlik – gazlamalarning kirlanish xususiyati. U gazlama o'ngining xarakteriga, gazlamaning tola tarkibiga, zichligi va pardoziga bog'liq bo'ladi. Tarab tuk chiqarilgan jun gazlamalarning chang oluvchanligi eng yuqori bo'ladi.

Issiqni saqlash xususiyatlari - matolarga issiqlik energiyasi ta'sir etganda ularda bir qator xususiyatlar yuz beradi: issiqni o'tkazish qobiliyati, issiqni yutish qobiliyati, issiqlik ta'sirida o'z xususiyatlarini o'zgartirish yoki saqlash qobiliyati.

Matolarning qalinligi qancha katta bo'lsa, issiqni saqlash xususiyati ham shuncha yaxshi bo'ladi. Shuning uchun issiqni saqlovchi kiyimlar ko'p qavatli qilib tikiladi. Agar matolarning zichligi kam bo'lsa, havo o'tkazuvchanligi oshadi, issiqni saqlash xususiyatlari esa yomonlashadi.

Matolarning ushbu xossasi sovuq xaroratda ham insonlarning sog'ligi va ishchanlik qobiliyatini saqlaydi.

Matolarning elektrlanuvchanligi ularni hosil qiluvchi tolalarning kimyoviy tuzilishi va gigroskopikligiga, atrofdagi havo namligiga, o'rinishiga bog'liq bo'ladi. Ko'pincha matolarning elektrlanuvchanligi – bu salbiy xususiyat. U matolar va buyumlarni tayyorlash jarayonini qiyinlashtiradi. Inson harakatlanganda esa kiyim tez kir bo'ladi, badanda yopishadi va odam o'zini noqulay his qiladi.

To'qimachilik matolarining kirishishi - yuvilganda, ho'llanganda, ho'llab dazmollanganda, nisbiy namligi katta bo'lgan havoda saqlanganda matolarning o'lchovlari o'zgaradi. Ana shunday o'lchovlarning o'zgarishi matolarning kirishishi deb ataladi. Gazlamalarning mexanik xususiyatlari kiyimning eskirishiga asosan unga cho'zuvchi, ezuvchi, bukuvchi kuchlar, ishqalanish kuchlari ta'sir etishi sabab bo'ladi. Shuning uchun kiyimning oxori va shaklining yaxshi saqlanishida hamda uzoqqa chidashida gazlamaning turli mexanik ta'sirlariga chidamliligi, ya'ni mexanik xossalari katta rol o'ynaydi. Gazlamaning mexanik xossalari pishiqligi, uzayishi, to'zishga chidamliligi, g'ijimlanuvchanligi, qattiqligi, draplanuvchanligi va boshqa xossalari kiradi.

To'qimachilik matolarining uzoq vaqt davomida yemiruvchi omillarga qarshilik ko'rsatish qobiliyati ularning yemirilishga chidamliligi deb ataladi.

Ushbu tadqiqotda ikki qavatli trikotaj to'qimali matosini o'rganilib, biz yaratgan modelga tavsiya qilingan. Bu matoni tanlashdan maqsad: trikotaj to'qimasi chidamli o'z egasiga uzoq vaqt xizmat qila oladi, ustki trikotaj mahsulotlarini assortimentini kengaytirish.

Trikotaj to'qimalarining fizik-mexanik xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar orasidan quyidagi ko'rsatkichlar: mustahkamlik va uzilishdagi uzayish, uzilish kuchidan kam bo'lgan kuchlanish ta'sirida cho'zilishi, bir martalik va takror cho'zilishga chidamlilik, g'ijimlanish va yemirilishga chidamlilik, issiq-nam sharoitda ishlov berilganda kirishishi kabilar qabul qilingan.

Asosiy qism. Trikotaj (frans, tircoter to'qimoq) — bir yoki bir necha iplardan halqalar hosil qilib, ularni o'zaro birlashtirish (o'rish) natijasida olinadigan mato yoki buyumdur. Trikotaj iplarning tarkibiga, ishlatilishi, pardozlash usuli va tuzilishiga qarab turlarga bo'linadi. Tarkibga qarab, paxta ipi, jun, ipak va kimyoviy tola aralashgan iplardan to'qilgan xillarga

bo'linadi. Ishlatilishiga qarab, trikotaj buyumlar yoki matolarga bo'linadi. Trikotaj buyumlariga kostyum, jemper, kofta, palto, qo'lqop, ko'ylak, ichki kiyim, paypoq va boshqa matolariga sun'iy mo'yna, sun'iy charm kiradi; bular texnik maqsadlarda va turli xil kiyimlar tayyorlashda ishlatiladi. Pardoqlash usuliga qarab, dag'al, oqartirilgan, tekis va bo'yalgan xillarga bo'linadi. Trikotajning asosiy fizik-mexanik xossalari uning tuzilishiga, halqalarning shakli va o'lchamiga, ipning yo'g'on va ingichkaligiga, qalinligi va pishiqligiga bog'liq. Tuzilishi (strukturasi) ga qarab, ko'ndalang to'qilgan, tanda o'rilishli, bir qavatli va ikki qavatli bo'ladi. Trikotaj yumshoqligi, elastikligi, g'ijimlanmasligi, yengilligi, oson yuvilishi bilan boshqa to'qima matolardan ustun turadi.

Shuning uchun ham biz asosiy modelimizda trikotaj matosidan foydalanganmiz.

References:

1. Mirziyoev SH.M. —Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz || Toshkent: —O`zbekiston|| 2017 yil
2. Xasanboyeva G.K., Shomansurova M.Sh.. «Kompazitsiya asoslari» T. 2009 yil
3. Nabidjanova Nargiza Abdiramatovich “ Badiiy Loyihalash” Namangan 2022 yil
4. Ergashev J.S, Maqsudov N.B “Materiallarni konfeksiyalash” Namangan 2021
5. Hasanbaeva G.K. «Kiyim modelini ishlash va konstruktsiyasini tayyorlash». T.: O`qituvchi. 1990 yil.
6. Бузов Б.А. Материаловедение в производстве изделий легкой промышленности (швейное производство) [Матн] : учеб. для студ. высш. учеб. заведений / Б.А.Бузов, Н.Д.Алыменкова ; Под ред. Б.А. Бузова. - 2-е изд., стер. - М.: Изд.центр «Академия», 2004
7. www.go.uz
8. www.lex.uz